



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 150-157 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIK DARAJASINI BAHOLASH



Nosirov Jasur Tursunpulotovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligi darajasini baholashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xavfsizlik darajasi aktivlar, majburiyatlar, sug'urta rezerolari va daromadlilik ko'rsatkichlarini dinamikada tahlil qilish orqali tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy xavfsizlikni baholashning zamonaviy usullari va yondashuvlari ko'rib chiqilib, ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqola doirasida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta kompaniyalari, moliyaviy xavfsizlik, aktivlar, majburiyatlar, sug'urta rezerolari, likvidlilik, to'lovga qobiliyatlilik, rentabellik, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты оценки уровня финансовой безопасности страховых компаний. В ходе исследования уровень финансовой безопасности страховых организаций был проанализирован путем динамического анализа активов, обязательств, страховых резервов и показателей рентабельности. Также рассмотрены современные методы и подходы к оценке финансовой безопасности и обоснованы возможности их практического применения. В рамках статьи разработаны научное предложение и практические рекомендации, направленные на повышение финансовой безопасности страховых компаний.

Ключевые слова: страховые организации, финансовая безопасность, активы, обязательства, страховые резервы, ликвидность, платежеспособность, рентабельность, управление рисками, финансовая устойчивость.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of assessing the level of financial security of insurance companies. During the research, the level of financial security of insurance organizations was analyzed by dynamic analysis of assets, liabilities, insurance reserves and profitability indicators. Also, modern methods and approaches to financial security assessment are considered, and their practical application possibilities are justified. Within the framework of the article, a scientific proposal and practical recommendations aimed at increasing the financial security of insurance companies have been developed.

Key words: insurance companies, financial security, assets, liabilities, insurance reserves, liquidity, solvency, profitability, risk management, financial stability.

Kirish

Hozirgi globallashuv va moliya bozorlari integratsiyalashuvi sharoitida sug'urta kompaniyalarining barqaror faoliyat yuritishi hamda ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sug'urta tizimi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat risklarni qayta taqsimlash, balki investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va xavfsizlik darajasini baholash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda sug'urta kompaniyalari faoliyati turli xil moliyaviy va noaniqlik risklari bilan bog'liq bo'lib, bu ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, raqobatning kuchayishi, moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik hamda global iqtisodiy beqarorlik sharoitida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash yanada muhim vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy xavfsizlik darajasini aniqlash, uni baholash mezonlarini takomillashtirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligi darajasini baholashning nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy yondashuvlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun moliyaviy xavfsizlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi o'rganilib, ularni baholash usullari tahlil qilinadi hamda sug'urta kompaniyalari faoliyatini yanada samarali tashkil etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligi masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy xavfsizlik tushunchasi ko'pincha korxonaning moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobiliyatligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

Ushbu yondashuv moliyaviy xavfsizlikni baholashda soddaligi va tezkorligi bilan ajralib turadi, ammo sug'urta kompaniyalari uchun uning ayrim kamchiliklari mavjud. Xususan, tashqi tahdidlar etarlicha inobatga olinmagan, ichki omillar esa asosan moliyaviy koeffisientlar orqali cheklangan tarzda baholangan. Shu bois, mazkur usulni universal emas, balki individual indikatorlar asosida moslashtirib qo'llash maqsadga muvofiq. Rossiyalik iqtisodchi N.Kapustina tomonidan taklif etilgan yondashuvda moliyaviy xavfsizlik normativ ko'rsatkichlardan og'ishlar orqali integral baholanadi¹. Biroq, u asosan joriy tahlil uchun mos bo'lib, strategik qarorlar qabul qilishda cheklangan ahamiyatga ega, chunki tashqi muhit ta'sirini etarli darajada hisobga olmaydi. Zamonaviy yondashuvlarda (Delas V., Nosova E., Yafinovich O.) moliyaviy xavfsizlikni kompleks baholash taklif etilib, unda tashqi muhit (SWOT, PEST) va ichki omillar (likvidlik, pul oqimlari, risklar) uyg'un tahlil qilinadi. Bu esa sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatini aniq baholash imkonini beradi².

¹ Капустина, Н.В. Развитие организации на основе риск-менеджмента: теория, методология, практика / Н.В. Кузьмина // ИНФРА-М. - 2014. - С. 178 (авт. - 11,12 п.л.)

² Delas V., Nosova E., Yafinovich O. Financial Security of Enterprises. Procedia Economics and Finance 27 (2015) 248 – 266;

Bunday uslubiyat birmuncha sub'ektiv xususiyatga ega bo'lib, korxonaning raqobat muhitiga nisbatan moliyaviy xavfsizligi darajasini baholash imkonini beradi, bu esa, kompleks taqdim etgan bo'lsa-da, biznesning rivojlanish istiqbollari tushunishni qiyinlashtiradi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholashda risklarni boshqarish, kapital yetarliligi va likvidlilik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xavfsizligi, avvalo, majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyati hamda kutilmagan yo'qotishlarni qoplash imkoniyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda sug'urta kompaniyalari faoliyatini baholashda integrallashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

MDH davlatlari olimlari Grachyov va Sivolapov ⁴ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari, ularni baholash mezonlari hamda milliy sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu ishlarda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda davlat tartibga soluvi, sug'urta nazorati va normativ talablarning ahamiyati alohida qayd etilgan³.

Mahalliy iqtisodchi olimlar professor Shennayev tomonidan ham sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholash, ularning barqarorligini ta'minlash va risklarni kamaytirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan⁴. Ular sug'urta tashkilotlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, aktiv va passivlarni samarali boshqarish hamda investitsiya faoliyatini optimallashtirish muhimligini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini kompleks baholashga qaratilgan yagona yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligi darajasini baholash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullar uyg'unligiga asoslangan bo'lib, moliyaviy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar hamda taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

G'arb va Osiyo olimlari hamjamiyati moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlarini kamdan-kam hollarda o'rganadilar, ular butun e'tiborni ko'proq alohida tarkibiy qismlarni: faoliyat risklarini; axborot xavfsizligi darajasini; moliyalashtirish manbalari ishonchliligini; moliyaviy avtonomiya ko'rsatkichlarini baholashga qaratadilar. Korxonalarining moliyaviy xavfsizligini baholash bo'yicha mavjud uslubiyatlarning ayrim, o'ta muhim elementlarini 1-jadvalda jamlashimiz mumkin.

³ Грачев А.В. Анализ и управление финансовой устойчивостью предприятия. – М.: Финпресс, 2002. – 208 с. Сиволопов С.Д. Финансовая устойчивость страховых организаций. – СПб.: Питер, 2005. – 256 с.

⁴ Шеннаев Х.М. (2015) "Суғурта компаниялари молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари". - Тошкент: Иқтисод-молия.

1-jadval

Korxonalarining moliyaviy xavfsizligi darajasini baholash bo'yicha mavjud uslubiyatlarning va ularning tarkibiy qismlarining elementlari⁵

№	Uslubiyat muallifi	Uslubiyatning o'ziga xos xususiyatlari	Uslubiyatning ustunliklari
1	Altman E. I.	Korxonalar bankrotligini baholash uchun Z-score modeli	Erta ogohlantirish tizimi sifatida samarali
2	Beaver W. H.	Moliyaviy koeffisientlar asosida xavfsizlikni baholash	Oddiy va yuqori aniqlikda prognoz
3	Ohlson J. A.	Logit modeli orqali bankrotlik ehtimolini baholash	Statistik asoslanganlik yuqori
4	Merton R. C.	Korporativ risklarni baholashda opsiya modelidan foydalanish	Bozor risklarini hisobga oladi
5	Kaplan R. S., Norton D. P.	Balanced Scorecard orqali strategik xavfsizlik bahosi	Moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar integratsiyasi
6	Damodaran A.	Korxonalar risklarini kompleks baholash (DCF, WACC)	Investitsiya qarorlar bilan bog'langan
7	Tursunov B.O.	Korxonalarining moliyaviy xavfsizligi darajasini integral baholash	Ichki va tashqi muhit inobatga olingan

Korxonalarining moliyaviy xavfsizligini baholash bo'yicha mavjud uslubiyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada shakllangan yondashuvlar turli nazariy maktablarga asoslangan bo'lib, ularning har biri moliyaviy barqarorlik va xavfsizlikni baholashning muayyan jihatlari yoritadi. Jumladan, Edward Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli korxonalar bankrotligini erta bosqichda aniqlash imkonini beruvchi samarali instrument sifatida e'tirof etiladi⁶. Ushbu yondashuv moliyaviy koeffisientlar tizimiga tayanadi va amaliyotda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, William Beaver tomonidan taklif etilgan modelda alohida moliyaviy koeffisientlar orqali korxonaning moliyaviy holati baholanadi, bu esa tahlilning soddaligi va yuqori prognoz qobiliyatini ta'minlaydi⁷.

James Ohlson ishlab chiqqan logit modeli esa bankrotlik ehtimolini statistik usullar orqali baholashga qaratilgan bo'lib, uning ilmiy asoslanganlik darajasi yuqori hisoblanadi⁸. Bundan tashqari, Robert Merton tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda korporativ risklar bozor mexanizmlari orqali baholanadi va opsiya modellari yordamida

⁵ Muallif tomonidan bir tizimga solingan.

⁶ Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843>

⁷ Beaver, W. H. (1966). Financial ratios as predictors of failure. *Journal of Accounting Research*, 4, 71–111. <https://doi.org/10.2307/2490171>

⁸ Ohlson, J. A. (1980). Financial ratios and the probabilistic prediction of bankruptcy. *Journal of Accounting Research*, 18(1), 109–131. <https://doi.org/10.2307/2490395>

aktivlar qiymati dinamikasi hisobga olinadi⁹. Bu esa moliyaviy xavfsizlikni baholashda bozor omillarini inobatga olish imkonini yaratadi.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan biri sifatida Robert Kaplan va David Norton tomonidan taklif etilgan Balanced Scorecard konsepsiyasi moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni integrasiyalash orqali korxonaning strategik xavfsizligini baholash imkonini beradi¹⁰. Shuningdek, Aswath Damodaran ishlarida risklarni kompleks baholash investision qarorlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi va diskontlash modellari (DCF, WACC) orqali asoslanadi¹¹.

Umuman olganda, mazkur uslubiyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xavfsizlikni baholashda yagona universal yondashuv mavjud emas. Shu bois, zamonaviy sharoitda mazkur modellarni integrasiyalash asosida kompleks, ko'p omilli baholash tizimini shakllantirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab tadqiqotlarda moliyaviy xavfsizlik asosan bir korxonada doirasida o'rganilib, tashqi muhit ta'siri etarlicha hisobga olinmagani kuzatiladi. Shuningdek, moliyaviy xavfsizlik ko'p hollarda kompleks emas, balki alohida elementlar kesimida tahlil qilingan. Bu esa sug'urta kompaniyalari uchun baholash natijalarining to'liq emasligiga olib keladi.

Aslida, sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini baholashda tashqi omillarni inobatga olish muhim hisoblanadi. Buning uchun biznes jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy tahdidlarni aniqlash talab etiladi. Ushbu tahdidlar, odatda, kompaniya nazoratidan tashqari bo'lib, ularga moslashuvchan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni talab qiladi. Jumladan, kiber hujumlar bilan bog'liq risklar, aktivlar qiymatining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq risklar, ob-havo va tabiiy ofatlar bilan bog'liq risklar, bozor omillarining tezkor o'zgarishi bilan bog'liq risklar sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Chunki mazkur sohada moliyaviy barqarorlik nafaqat tashqi makroiqtisodiy muhit, balki ichki boshqaruv samaradorligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalari faoliyatida moliyaviy xavfsizlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga — ichki va tashqi muhit omillariga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

2-jadval

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligiga tashqi muhit ta'sirini baholash maqsadida tanlangan mezonlar bo'yicha natijalar.

№	Mezon	Baho (0–10)	Qisqacha izoh
1	Makroiqtisodiy barqarorlik	8	Barqaror o'sish bor, lekin tashqi shoklarga sezgir
2	Valyuta va foiz risklari	6	Valyuta o'zgaruvchanligi yuqori ta'sirga ega

⁹ Merton, R. C. (1974). On the pricing of corporate debt: The risk structure of interest rates. *The Journal of Finance*, 29(2), 44

¹⁰ Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1992). The balanced scorecard—Measures that drive performance. *Harvard Business Review*, 70(1), 71–799–470. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1974.tb03058.x>

¹¹ Damodaran, A. (2012). *Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset*. Wiley

3	Siyosiy barqarorlik	8	Barqaror, islohotlar davom etmoqda
5	Soliq siyosati	7	Soliq yuki mavjud, lekin islohotlar bor
6	Bozor hajmi va o'sishi	6	Sug'urta bozori o'smoqda,
7	Raqobat muhiti	6	Raqobat o'smoqda, lekin hali cheklangan
8	Texnologik rivojlanish	7	Raqamlashtirish jarayoni davom etmoqda
9	Kiberxavfsizlik	5	Risk mavjud, himoya tizimlari etarli emas
10	Ijtimoiy-demografik omillar	7	Sug'urta madaniyati rivojlanmoqda

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligiga tashqi muhit ta'sirini baholash maqsadida tanlangan mezonlar bo'yicha ekspert baholash natijalari ushbu sohaning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini aniq aks ettiradi (2-jadval). Jumladan, makroiqtisodiy barqarorlik 7 ball bilan baholanib, mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari ijobiy bo'lsa-da, tashqi iqtisodiy shoklarga sezgirlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Siyosiy barqarorlik yuqori – 8 ball darajasida baholanib, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar sug'urta bozori uchun qulay institusional muhit yaratayotganini ko'rsatadi. Soliq siyosati 7 ball bilan baholangan bo'lib, soliq yuki mavjudligiga qaramay, uni liberallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ijobiy baholanadi. Bozor hajmi va o'sishi (7 ball) sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini va sohaning yuqori rivojlanish salohiyatiga egaligini anglatadi. Shu bilan birga, raqobat muhiti 6 ball bilan baholanib, bozorda raqobat kuchayib borayotgan bo'lsa-da, hali etarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi.

Texnologik rivojlanish va kiberxavfsizlik omillari har biri 7 ball bilan baholangan bo'lib, raqamlashuv jarayonlari mavjud, ammo ularni chuqurlashtirish zarurligi saqlanib qolmoqda. Ijtimoiy-demografik omillar ham 7 ballni tashkil etib, aholida sug'urta madaniyati asta-sekin shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur baholash natijalari sug'urta kompaniyalari uchun tashqi muhit nisbatan barqaror ekanini, biroq moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda valyuta risklari, raqobat va texnologik omillarga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Ichki muhit omillari sug'urta kompaniyasining to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv qarorlari bilan bog'liq bo'lib, ular moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, anderryating siyosati, risklarni boshqarish tizimi, qayta sug'urta strategiyasi, investisiya faoliyati, likvidlikni boshqarish va debitorlik qarzdorligini nazorat qilish kabi omillar kompaniyaning moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, sug'urta rezervlarini shakllantirishdagi xatoliklar yoki noto'g'ri baholashlar kompaniyaning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, investisiya aktivlarini samarali joylashtirish va diversifikasiya qilish moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Demak, ichki muhit omillari kompaniyaning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda asosiy drayver sifatida namoyon bo'ladi.

Tashqi muhit omillari esa sug'urta kompaniyasi faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan makroiqtisodiy va institusional shart-sharoitlardan iborat. Bularga inflyasiya darajasi, milliy valyuta kursi, foiz stavkalari, davlatning sug'urta bozorini tartibga solish siyosati, soliq tizimi, raqobat muhiti va xalqaro qayta sug'urta bozorlaridagi o'zgarishlar kiradi. Masalan, inflyasiyaning yuqori darajasi sug'urta to'lovlari qiymatini oshirib, kompaniya xarajatlariga bosim o'tkazadi. Shu bilan birga, valyuta kursining o'zgarishi qayta sug'urta operatsiyalari orqali tashqi risklarni oshirishi mumkin. Biroq, ushbu omillar kompaniya tomonidan to'liq nazorat qilina olmaydi, balki ularga moslashish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

O'zbekiston sharoitida sug'urta bozori rivojlanish bosqichida bo'lib, davlatning tartibga solish o'rni zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, kompaniyalarning ichki boshqaruv sifatlari va korporativ boshqaruv darajasi moliyaviy natijalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Amaliy tahlillar, shu jumladan buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlari (likvid aktivlar, sug'urta rezervlari, debitorlik qarzdorligi, investisiya daromadlari) dinamikasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlik asosan ichki resurslar va boshqaruv qarorlariga bog'liq holda shakllanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar ulushini baholashda ichki muhit omillarining ustuvorligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Xususan, tahlil natijalari va amaliyotdagi kuzatuvlarga tayanib, ichki muhit omillarining ta'siri 65–70 foizni, tashqi muhit omillarining ta'siri esa 30–35 foizni tashkil etishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ushbu nisbat sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ko'proq ichki boshqaruv samaradorligiga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Shu tariqa, taklif etilayotgan yondashuv sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligini baholashda ichki va tashqi omillarni kompleks hisobga olish imkonini beradi hamda ularning ta'sir darajasini ilmiy asosda taqsimlash orqali tahlil natijalarining aniqligi va ishonchligini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotlarda moliyaviy xavfsizlik asosan bir korxonada emas, tashqi muhit ta'siri etarlicha hisobga olingan holda kompleks tahlil qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun baholash natijalarining to'laqonli bo'lishiga olib keladi.

Birinchi, sug'urta kompaniyalari moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash nafaqat tashqi makroiqtisodiy muhit, balki ichki boshqaruv samaradorligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalari faoliyatida moliyaviy xavfsizlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga — ichki va tashqi muhit omillariga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchi, sug'urta kompaniyalari uchun tashqi muhit nisbatan barqaror ekanligi, biroq moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda valyuta risklari, raqobat va texnologik omillarga alohida e'tibor qaratish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi, sug'urta kompaniyalari ichki muhit omillari ularning moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, andarrayting siyosati, risklarni boshqarish tizimi, qayta sug'urta strategiyasi, investisiya faoliyati, likvidlikni boshqarish va debitorlik qarzdorligini nazorat qilish kabi omillar kompaniyaning moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, sug'urta rezervlarini shakllantirishdagi xatoliklar yoki

noto‘g‘ri baholashlar kompaniyaning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, investisiya aktivlarini samarali joylashtirish va diversifikasiya qilish moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Капустина, Н.В. Развитие организации на основе риск-менеджмента: теория, методология, практика / Н.В. Кузьминова // ИНФРА-М. - 2014. - С. 178.
2. Delas V., Nosova E., Yafinovich O. Financial Security of Enterprises. *Procedia Economics and Finance* – 2015 P. 248 – 266;
3. Грачев А.В. Анализ и управление финансовой устойчивостью предприятия. – М.: Финпресс, 2002. – Р. 208 с. Сиволапов С.Д. Финансовая устойчивость страховых организаций. – СПб.: Питер, 2005. Р. 256 с.
4. Шеннаев Х.М. - 2015 "Суғурта компаниялари молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари". - Тошкент: Иқтисод-молия.
5. Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843>.
6. Beaver, W. H. -1966. Financial ratios as predictors of failure. *Journal of Accounting Research*, 4, 71–111. <https://doi.org/10.2307/2490171>
7. Ohlson, J. A. -1980. Financial ratios and the probabilistic prediction of bankruptcy. *Journal of Accounting Research*, 18(1), P.109–131. <https://doi.org/10.2307/2490395>
8. Merton, R. C. -1974. On the pricing of corporate debt: The risk structure of interest rates. *The Journal of Finance*, 29(2), 44
9. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. -1992. The balanced scorecard—Measures that drive performance. *Harvard Business Review*, 70(1), 71–799–470. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1974.tb03058.x>
10. Damodaran, A. -2012. *Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset*. Wiley

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

